

LOYIHA

XALQARO YO‘NALISHDA QATNOVCHI AVTOBUS YO‘LOVCHILARINI BAXTSIZ HODISALARDAN EHTIYOT SHART SUG‘URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Qoidalar Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining Litsenziyasi hamda “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, baxtsiz hodisa natijasida sog‘liqning qattiq shikastlanishi yohud shuning natijasida vafot etgan taqdirda Sug‘urta qilingan shaxsga sug‘urta ta‘minotining belgilab qo‘yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to‘lanishini ta‘minlovchi Umumiy sug‘urta tarmog‘ining I klassga oid sug‘urta turi hisoblanadi.

II. MAZKUR QOIDALARDA ISHLATILADIGAN ATAMALAR MAZMUNI:

Sug‘urtalovchi	O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida ish olib borayotgan “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati va uning nomidan harakat qiluvchi hududiy filiallar;
Sug‘urta qildiruvchi	Sug‘urtalovchi bilan sug‘urta shartnomasini (Sug‘urta polisini) tuzgan xalqaro yo‘nalishda qatnovchi avtobus yo‘lovchilari;
Sug‘urta shartnomasi	Sug‘urtalovchi bilan Sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida elektron ravishda tuzilgan ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari to‘g‘risidagi bitim (Sug‘urta polisi) ;
Sug‘urta mukofoti	Sug‘urta shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchi tomonidan to‘lanadigan pul mablag‘i
Sug‘urta polisi	Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga (yo‘lovchiga) elektron tarzda beriladigan Sug‘urta shartnomasining shartlari asosida Sug‘urtalovchining majburiyati boshlanganligini tasdiqlovchi hujjat;
Manfaatdor shaxs	Sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda Sug‘urta pulini olish uchun tayinlangan shaxs;
Sug‘urta puli	Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi bo‘yicha javobgarlikni uning chegarasida olib boradigan va uni miqdoridan kelib chiqqan holda sug‘urta mukofoti va sug‘urta to‘voni miqdori aniqlanadigan sug‘urta shartnomasida belgilanadigan pul mablag‘i;
Sug‘urta hodisasi	Xalqaro yo‘nalishda qatnovchi avtobus bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l-transport hodisasi yoki tabiiy ofatlar natijasida Sug‘urtalangan shaxs, ya‘ni yo‘lovchining manzilga yetgunga qadar sog‘lig‘iga zarar yetishi yoki uning oqibatida vafot etishi;
Yo‘l-transport hodisasi (YTH)	Avtotransport vositasining (urilishi, sirg‘alishi, yonib ketishi, turli jihozlarga urilib ketishi, qulashi) harakatlanish yoki noharakat vaqtlarida zararlanishi;
Tabiiy ofatlar	Tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi.

	Shatnoma doirasida tabiiy ofatlar: zilzila, toshqin, tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), sel va sel oqimi, ko'chki;
Sug'urta tovon	Sug'urta puli doirasida ushbu Qoidalarda qayd etilgan holatlarda sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs)ga to'lanadigan pul mablag'lari summasi;
Sug'urta muddati	Sug'urta polisining amal qilish muddati.

III. SUG'URTA SUBYEKTLARI

Sug'urtalovchi bilan Sug'urta polisini rasmiylashtiruvchi bo'lib, muomala layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Sug'urta qildiruvchilar hisoblanadi.

IV. SUG'URTA OBYEKTI

Sug'urtalangan shaxslarning hayoti va sog'lig'iga bog'liq qonunlarga zid kelmaydigan mulkiy manfaatlar Sug'urta obyektiga hisoblanadi.

V. SUG'URTA HODISASI

5.1. Xalqaro yo'nalishda qatnovchi avtobus bilan bog'liq bo'lgan yo'l-transport hodisasi yoki tabiiy ofatlar natijasida Sug'urtalangan yo'lovchilarning sog'lig'iga zarar yetishi yoki uning oqibatida vafot etishi Sug'urta hodisasi hisoblanadi. Shu tufayli Sug'urtalangan shaxs vafot etganda esa Sug'urta qildiruvchiga yoki vorislariga Sug'urta pulini to'liq to'lash majburiyati kelib chiqadi.

5.2. Sug'urtalangan yo'lovchilarning xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holda Sug'urtalangan yo'lovchilarning manzilga yetgunga qadar tanasi jarohatlanishi yoki o'limga olib keluvchi tabiatda bo'ladigan quyidagi baxtsiz hodisalar hisoblanadi:

- a) avtobuslarning yo'l-transport hodisalarida olingan jarohatlar;
- b) tasodifan suyak sinishi, chiqishi, kuyishi (jarohatlanishi yoki vafot etishi);
- d) tabiiy ofatlar (tezligi 20 m/s dan yuqori bo'lgan kuchli shamol, zilzila, toshqini, juda kuchli shamol (dovul), sel va sel oqimi, ko'chki) natijasida olingan jarohatlar yoki uning oqibatida vafot etishi.

5.3. Sug'urtalovchi quyidagi holatlarda sug'urta qildiruvchi (yo'lovchi)ga nisbatan javobgarlik olib bormaydi:

- a) Sug'urta qildiruvchining qasddan qilgan harkatlari;
- b) Kasallikning barcha turlari, shu jumladan infarkt va insult;
- d) Avtobus bilan aloqador bo'lmagan holatlarda Sug'urta qildiruvchi (yo'lovchi)larning sog'lig'iga zarar yetishi yoki vafot etishi (avtobusning zaruriyat yuzasidan to'xtashi bundan mustasno).

VI. SUG'URTA SHARTNOMASI (SUG'URTA POLISINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI VA MUDDATI

6.1. Sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 927-moddasiga ko'ra Sug'urta qildiruvchining og'zaki roziligi asosida va sug'urta mukofotini to'lagandan so'ng, sug'urta shartnomasini va uning xalqaro avtobus yo'nalishi bo'yicha manziliga yetib borgunga qadar amal qilishini tasdiqlovchi Sug'urta polisi (1-ilova)ni elektron taqdim etish yo'li bilan tuziladi.

6.2. Xalqaro avtobus harakatlanishidan oldin shohbekatdan chipta olish vaqtida Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchiga to'langanda yoki sug'urta mukofoti pul ko'chirish yo'li bilan to'langanda sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan keyin Sug'urta qildiruvchi (yo'lovchi)ga Sug'urta polisi bir vaqtning o'zida rasmiylashtirilib beriladi.

6.3. Sug'urta qildiruvchi (yo'lovchi) xalqaro avtobus shohbekatidan yo'nalishi bo'yicha shohbekatga borib yetgunga qadar sug'urtalangan hisoblanadi.

6.4. Sugʻurta shartnomasi (Sugʻurta polisi)ning amal qilish muddati xalqaro avtobus shohbekatidan yoʻnalishi boʻyicha shohbekatga yetib borguniga qadar belgilanadi, lekin avtobus yoʻlga chiqish sanasidan 10 kundan oshmagan muddatga.

VII. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ning huquqlari:

- a) Sugʻurtalovchidan Sugʻurta polisi shartlari boʻyicha maslahat olish;
- b) Sugʻurta tovonini (Sugʻurta pulini) olish;
- d) Sugʻurtalovchining sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlashni rad etganda unga nisbatan sudda daʼvo qoʻzgʻatish yoʻli bilan eʼtiroz bildirishi.

7.2. Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ning majburiyatlari:

- a) Sugʻurta qildiruvchi xalqaro avtobusga shohbekatdan chipta olish vaqtida sugʻurta mukofotini toʻlash;
- b) Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi) sugʻurta polisi boʻyicha sugʻurta hodisasi yuz berganda, sugʻurta hodisasi sodir boʻlganda 20 kundan kam boʻlmagan muddatga Sugʻurtalovchini xabardor qilish;
- d) zarur hollarda jabrlangan yoʻlovchining sogʻligʻining holatini tekshirishga va kasallik tarixini oʻrganishga Sugʻurtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga ruxsat berish.

7.3. Sugʻurtalovchining huquqlari:

- a) Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi) sugʻurta shartnomasi tuzilgandan soʻng Sugʻurtalovchiga bila turib (sogʻliq va sugʻurta xavfiga oid) yolgʻon maʼlumotlar berganligi aniqlansa, Sugʻurtalovchi shartnomani (sugʻurta polisini) haqiqiy emas deb topish;
- b) Sugʻurtalovchi oʻziga qarashli shifokor-ekspertni jabrlangan Sugʻurtalangan shaxsning sogʻligʻini holati va kasallik tarixini oʻrganish uchun yuborish;
- d) Sugʻurtalovchi sugʻurta hodisasi yuzaga kelishida aybdor shaxslarga nisbatan toʻlangan sugʻurta pulini undirish uchun sudda daʼvo qoʻzgʻatish.

7.4. Sugʻurtalovchining majburiyatlari:

- a) Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ni sugʻurta qoidalari bilan tanishtirish;
- b) Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ga sugʻurta mukofoti naqd pulda yoki pul koʻchirish yoʻli bilan toʻlangandan soʻng Sugʻurta polisini yozib berish;
- d) sugʻurta hodisasi roʻy berganda Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ga sugʻurta qoidalari hamda qonunchilikda belgilangan muddatda va tartibda toʻlov komissiyasi bayonnomasi bilan sugʻurta hodisasi tan olingandan keyin 5 ish kuni ichida Sugʻurta tovonini amalga oshirish;
- e) sugʻurta tovonini (sugʻurta puli) toʻlovi rad etilganda Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi)ga yozma ravishda xabar qilish.

VIII. SUGʻURTA DAʼVO ARIZASINI KOʻRIB CHIQISH VA SUGʻURTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH TARTIBI

8.1. Sugʻurta hodisasi boʻyicha sugʻurta toʻlovi “Oʻzagrosugʻurta” AJ Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurta qilishning barcha turlaridan Sugʻurta hodisasi natijasida tan jarohati olishi boʻyicha sugʻurta puli miqdorini aniqlash jadvali”ga asosan aniqlanadi.

8.2. Sugʻurtalangan (yoʻlovchi yoki manfaatdor) shaxs Sugʻurta hodisasi boʻyicha Sugʻurta tovonini olish uchun (Sugʻurta hodisasi roʻy berganda Sugʻurtalovchini xabardor qilish muddati 20 kundan kam boʻlishi mumkin emas) Sugʻurtalovchiga daʼvo ariza va quyidagi hujjatlar bilan murojaat qiladi:

- Sugʻurta polisi;
- hodisa boʻyicha tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar, Yongʻin xavfsizligi va boshqalar) ning maʼlumotnomalari;
- Sugʻurta hodisasini tasdiqlovchi tibbiy muassasaning tasdiqlangan maʼlumotnomasi;
- Sugʻurta qildiruvchi (yoʻlovchi vafot etganda) FHDYO idorasi tomonidan berilgan oʻlimi toʻgʻrisidagi guvohnomasining nusxasi;
- Manfaatdor shaxsning pasport nusxasi;
- Notarial idorasi tomonidan berilgan vorislik huquqi toʻgʻrisidagi guvohnomasining nusxasi, zarur hollarda tergov tashkilotlarining hujjatlari va rentgen surati taqdim etiladi.

IX. NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI

Mazkur Qoidalar asosida tuzilgan sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi) bo‘yicha Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchi (yo‘lovchi) o‘rtasida kelib chiqqan barcha nizolar o‘zaro kelishuv orqali, kelishish imkoni bo‘lmagan holatlarda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

X. QOIDALARNING KUCHGA KIRISH TARTIBI

Mazkur Qoidalar “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va ro‘yhatdan o‘tgan kundan boshlab kuchga kiradi.